таълим жараёнида ўрганилади. Тилшуносликнинг бўлимлари, тилнинг қурилиши ҳамда унинг вазифалари ҳақида билим, кўникмалар ва улардан ўринли фойдаланиш маҳоратига лингвистик компетенция сифатида қаралади. Яъни нутқий фаолиятни тартибга солувчи грамматик қоидаларни амалиётда уйғунликда – ўрганаётган тилда сўз ва жумлаларни тўғри қўллай олиш, нутқдаги фикрнинг гапдаги ифодасини тўғри-нотўғрилигини ажрата олиш лаёқатидир.

Лингвистик компетентликнинг алоҳида жиҳати шундаки, фикрни оғзаки ва ёзма шаклда етарли даражада ифодалаш учун ўз она тилининг фонетикаси ва орфоэпияси (товуш тизими, урғуни тўғри қўллаш), лексикаси (сўзларни синоними, антоними, омоними билан ўрганиш, сўзларнинг ўз ва кўчма маъноларини, фразеологизмларини англаш), сўзнинг таркиби (асос ва қўшимчаларни фарқлаш, ҳар бир туркумга хос грамматик шаклларни ва уларнинг вазифаларини), синтаксиси (фикрни тасдиқ ёки инкор қилиш шакллари, ифода мақсадига кўра дарак, сўроқ, буйруқ гаплар)ни ўрганмасдан туриб, яъни лингвистик компетенциясисиз тилни эгаллаш асло мумкин эмас. Чет тилларни ўрганиш учун ҳам, аввало, ўз она тилини пухта ўзлаштириш талаб қилинади.

Лингвистик компетентликнинг аҳамияти шундаки, ҳар бир ўқувчининг давлат тилидан имловий саводхонлигини яхшилаш, ўзбек тилидан касбий фаолиятларида самарали фойдаланишларига замин яратиш, нотиқлик маҳоратини эгаллаши учун лингвистик компетенция зарур бўлади. Лингвистик компетенциянинг шакллантириш ўқувчиларда тўғри талаффуз ва имло саводхонлигини эгаллаш, сўзнинг маъно қирраларини англаш ва нутқда ўринли ҳамда тўғри қўллаш, касбий фаолиятига оид адабиётларни ўқиб тушуниш, ўз фикрларини оғзаки ва ёзма ифодалаш орқали нутқий кўникма, малакаларини ривожлантиришга имкон яратади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, таълимда лингвистик компетентликнинг шаклланганлиги ўқувчиларда адабий талаффуз, имловий, услубий саводхонлик малака ва кўникмалари ривожланишини таъминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Словарь иностранных слов. – Москва: Русский язык, 1988. – С.91.
2.Окуловский О.И. Компетенции и компетентностный подход в обучении.// Молодой ученный. Москва, 2012. - №12. – С. 499-500.
3. Хуторский А.В. Дидактическая эвристика. Теория и технология кретивного обучения – М.: Изд-во МГУ, 2003.- С. 60-109
4. Турдиев Н.Ш., Асадов Ю.М., Акбарова С.Н., Темиров Д.Ж. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари. Т.: Т.Н. Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон республикаси педагогика фанлари илмий-тадқиқот институти. 2015. 160-бет.
5.Асадов Й. Таълимда компетенциявий ёндашув//Мактаб ва ҳаёт. 2014, 1-сон. 8-бет.
6.Нурмонов А., Зиёдуллаева Г. Ўқувчиларнинг тил компетенлигини шакллантириш ва ривожлантириш муаммолари.// Маърифат, 2014, 18 июль. 9-бет.
7.Азимов Э.Г., Шчкин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.:Издательство ИКАР, 2009. стр.98.
8. Улуқов Н. Лингвистик компетентликни шакллантириш омиллари.//Тил ва адабиёт таълими журнали, 2018, 6-сон. 16-бет.

BO’LAJAK PEDAGOGLARDA UNIVERSAL KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ УНИВЕРСАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

THE IMPORTANCE OF DEVELOPING UNIVERSAL COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS

S.T.Sodiqova- o’qituvchi, Qo’qon DPI
S.Rapiqjonova- talaba, Qo’qon DPI

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirda tez-tez qo’llanilayotgan “Hard skills” va “Soft skills” atamalari mazmuni, ularning kelib chiqish tarixi, bo’lajak pedagoglarni tayyorlashda ushbu malakalarning ahamiyati haqida so’z boradi. Shuningdek, malakalarning muhimligi turli situatsiya va savollar yordamida ko’rsatilgan.

Kalit so’zlar: Hard skills, soft skills, kasbiy malaka ,muloqot, emotsional intellect, adaptivlik.

Аннотация. В статье рассматриваются значение терминов “Hard skills” (профессиональные навыки) и “Soft skills” (гибкие навыки), история их возникновения и важность этих навыков в подготовке будущих учителей. Также важность этих навыков демонстрируется с использованием различных ситуаций и вопросов.

Ключевые слова: профессиональные и гибкие навыки ,общение , эмоциональный интеллект,адаптивность.

Annotation. This article is devoted to the study of the terms “ Hard skills “ and “ Soft skills” the history of origin, the importance of these skills in preparation of future teachers .The article also suggests the importance of skills by the help of different situations and questions.

Key words: Hard skills, soft skills, professional skills, communication, emotional intelligence, adaptivity .

Hozirgi vaqtda pedagogika bo’yicha turli xil treninglar, maqolalarda tez- tez yangi inglizcha “hard skills “ va “ soft skills “ atamalari qo'llaniladi, lekin ko’pchilik bu atamalar va ularning ma’nosi, ahamiyati, bir-biridan farqi haqida ma’lumotga ega emas.

“Hard skills “- bu o’rgatish va darajasini belgilash mumkin bo’lgan kasbiy malakalardir.Ingliz tili o’qituvchisiga darslarni olib borishi uchun mazkur fan bo’yicha yetarli bilim va metodika kerak bo’ladi.Bu malakalarni shakllantirish uchun ko’rsatmalarga amal qilish va bilimlarni egallash talab qilinadi, ta’lim sifatini imtihon vositasida tekshiriladi. Kasbiy malakalarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: kompyuterda matn terish, avtomobil haydash, o’qish, matematika, xorijiy tillarni bilish, kompyuter dasturlaridan foydalanish.

“Soft skills” –ba’zan shaxsiy xususiyat va sifatlar deb ataladigan, insonning fe’l -atvoriga bog’liq bo’lgan va shaxsiy tajriba yordamida egallanadigan, hech qanday ko’rsatkichlar bilan o’lchab bo’lmaydigan universal competentsiyalar.Kommunikativlik, jamoada ishlash, kreativlik, punktuallik, og’ir bosiqlik kabi ijtimoiy, intellektual va irodaviy kompetensiyalar universal kompetensiyalarga misol bo’ladi.

Bu terminlar dastlab harbiy sohada qo’llanilgan. 1959-yil AQSH armiyasi harbiy xizmatchilarni tayyorlashning ilmiy asoslangan yo’nalishini ishlab chiqishni boshladi.Dasturni ishlab chiqish davomida izlanuvchilar harbiy xizmatchilarga professional malakalar (hard skills) bilan bir qatorda rejalashtirilgan ta’lim bilan o’rgatib bo’lmaydigan universal kompetensiyalar (soft skills) ham muhimligini aniqladilar.

Ushbu ikki malaka orasidagi farqlarga 1968-yil “Harbiy tayyorgarlikni loyihalash tizimlari “ doktrinasida quyidagicha t a’rif berilgan: hard skills – texnika, mashinalar bilan ishlash, soft skills – insonlar va hujjat (qog’oz) lar bilan ishlash malakasidir. Harbiy soha va psixologiyadan keyin ushbu terminlar biznes sohasida erkin qo’llana boshlandi.Hozirda ularni pedagogika va

metodikada tarjimasiz qo’llash holatlari kuzatilmoqda.

Professional malakalarni muvaffaqiyatli egallashda intellekt (chap yarim shar, intellektual koeffisiyent , mantiq) muhim bo’lsa, universal kompetensiyalarni rivojlantirish uchun emotsionallik (o’ng yarim shar, EQ-emotsional intellekt, empatiya – o’zgalarning kechinmalarini his etish, xayrixohlik) muhimdir.

Professional malakalarni turli ta’lim muassasalari (maktab, oliygoh, qo’shimcha kurslar)da egallash mumkin.Odatda bu malakalar osondan qiyinga qarab asta-sekin shakllantiriladi.Masalan, ingliz tilini o’rganish bilim darajasiga ko’ra turli bosqichlarda tashkil qilinadi: Elementary, Pre-intermediate, Intermediate, Upper-intermediate kabi.Tilni egallaganlik darajasi imtihon orqali aniqlanadi.

Shaxsiy fazilatlar (universal kompetensiya) esa insonda tug’ma yoki hayot faoliyati davomida turli xatolar va tajriba natijasida vujudga keladi va sekin o’zlashtiriladi.

Professional malakalarni diplom yoki sertifikatga ko’ra aniqlash mumkin, lekin universal kompetensiyalarni bu tarzda aniqlab bo’lmaydi. O’qituvchilikda muloqotga kirisha olish qobiliyati, hissiy intellekt, muammolarni samarali hal qilish, tanqidiy fikrlash kabi shaxsiy fazilatlar o’quvchilar bilan muomala qilish va o’z faoliyatini tashkil qilishda yordam beradi Ba’zan shunday holatlar bo’ladiki, tilshunosning qizil diplomi va xorjiy tilni yuqori darajada bilishi o’quvchilar bilan muloqotga kirishish va darslarni samarali tashkil qilish uchun yetarli bo’lmaydi, o’qituvchida shaxsiy fazilatlar ham shakllangan bo’lishi lozim.Shunung uchun bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlashda ularda universal kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish kerak .

Quyidagi holatlar va savollar har bir o’qituvchiga shaxsiy fazilatlarning o’qituvchilik faoliyatida muhimligini va o’zida shu malakalar mavjud yoki qay darajada ekanligini aniqlash imkonini beradi :

1.Samarali muloqot. o’quvchilarning ota-onalari bilan uchrashuv o’tkazasiz, uchrashuv maqsadlari aniq belgilangan. So’ng barcha kerakli ma’lumotlarni yetkazasiz , ota-onalarning fikrlarini aniqlash uchun ularni diqqat bilan tinglaysiz va shunga ko’ra javoblarni shakllantirasiz. Bunda noverbal belgilar, yuz ifodasini tushunish katta ahamiyatga ega. Agar ota-onalar yuz ifodasidan biror nimani tushunmaganligini, so’rashga tortinayotganligini sezsangiz, bu ma’lumotlarni yana bir bor qaytarasiz.

Sizda bu fazilatlar qanday rivojlanganligini aniqlash uchun quyidagi savolga javob bering va javob berish qanchalik qiyin bo’lganligini aniqlang.

80 yoshli buvingizga online darslar qanday tashkil qilinishini tushuntirishingiz kerak! Bu siz uchun qanchalik qiyin?

2.Hamkorlik yoki jamoada ishlash.Siz biror musobaqada ishtirok etyapsiz Nomzodlar guruhlarga bo’lin-gan. Bunda barcha qatnashuvchilar o’rtasida rollarni teng va to’g’ri taqsimlash kerak. Ziddiyatlar yuzaga kelganda ularni hal qilishga harakat qilasiz.

Savol: Jamoa yomon ishlayapti chunki a’zolar o’z rollarini uddalay olmayapti. Bu holatni qanday hal qilgan bo’lardingiz?

3.Axborotni baholash va tahlil qilish.Bu kerakli narsani tez va aniq tanlash, qaror qabul qilish malakasidir. Sizga dars o’tishingiz uchun yangi guruh berildi,birinchi darsda siz talabalarning bilim darajasi va qiziqishlari, maqsadlarini bilib oldingiz.Yig’ilgan ma’lumotlarni tahlil qilib umumiy qiziqishlarni aniqlaysiz va darsni barcha uchun qiziqarli bo’lishiga harakat qilasiz.Kuchli bo’lmagan talabalarga mavzuni tushuntirayotganda kuchli talabalarga qanday topshiq berishni oldindan rejalashtirasiz.

Savol:

Siz muammoni hal qilishingizga to’g’ri keldi, lekin sizda kerakli axborot yo’q edi.Siz qanday yo’l tutasiz?

4.Kreativlik - bu nostandart qarorlar qabul qilish , noodatiy g’oyalarni amalga oshirish va odatiy topshiriqlarga ijodiy yondashish .Qoidalarni yaxshi o’zlashtira

olmaydigan o’quvchiga “The Present simple” zamonini qo’llanilishini o’rgatishingiz kerak. Yuzaga kelishi mumkin bo’lgan qiyinchiliklarni oldindan aniqlaysiz va mavzu oson esda qolishi uchun o’quvchining sevimli qahramoni (multfilm yoki kitobdagi) dan foydalanib mavzuni tushuntirasiz.

Savol: Agar hayotingiz bir kitob bo’lsa uni qanday nomlagan bo’lar edingiz?

5.Emotsional intellekt yoki empatiya - o’zi va o’zgalarning hissiyotlarini belgilash va ularni boshqarish malakasi. Darsda bir o’quvchi kayfiyati yo’qligi sababli darsga e’tibor qaratmaydi. O’qituvchi o’quvchi o’zini qanday his qilayotganligini so’rash va uni diqqat bilan tinglash orqali darsga qaytarishi mumkin.

Savol: Yaqin do’stingiz qo’llab quvvatlashingizga muhtoj , unga qanday yordam bera olasiz?

Qarshingizdagi hamrohingiz sizdan xafa ekanligini yashirmoqchi , siz buni qanday bilasiz?

Uy vazifasini bajarmagan o’quvchilardan juda xafa bo’ldingiz. O’zingizni qanday tutasiz?

6. Adaptivlik(moslashuvchanlik)-muammolarni hal qilish va o’zgarishlarga moslashishda muhim malakalardan biri hisoblanadi. Siz barcha darslarga tayyorlandingiz. Lekin ertalab sizga boshqa o’qituvchi kasal bo’lib qolganligi, uning darslarini ham siz birga tashkillashingiz aytildi. Siz turli guruh va dasturlarda ishlaysiz, lekin holatni tezda ko’rib chiqib dars rejasini barcha uchun foydali bo’lgan tomonga o’zgartirasiz.

Savol: Faoliyatingiz davomida duch kelgan eng qiyin o’zgarish va uni qanday yengib o’tganingizni eslay olasizmi ?

7.Vaqtdan unumli foydalanish.

Kun davomida rejalashtirgan barcha ishlaringizni bajarishga ulgurasizmi?

Tasodifiy hodisalar kun tartibingizga ta’sir qiladimi?

8.O’z-o’zini nazorat qilish, o’z ustida ishlash bu o’z hayoti va rivojlanishiga bo’lgan ongli munosabatdir.

Hozirgi davrda barcha o’qituvchilar uchun bu shaxsiy fazilatlar muhim. Chunki bizning kasblarga bo’lgan munosabatimiz o’zgarmoqda. Avvallari o’qituvchi yagona bilim manbai bo’lib, yangi mavzuni faqat o’qituvchidan darslik vositasida o’rganish mumkin bo’lgan. Lekin hozir holat o’zgacha.Ko’p ma’lumotlardan internetda ochiq foydalanish mumkin. O’qituvchi materialni mustaqil o’zlashtirishda bosh-qaruvchi va yordamchi vazifasini bajarib talabalarni yo’naltiradi va tanqidiy fikrlashga o’rgatadi. Xulosa qilib aytganda, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kreativlik, jamoada ishlash, muloqotga kirishish, moslashuvchanlik, emotsional intellekt kabi universal kompetensiyalarni shakllantirish ularning kelajakda o'z kasbining mohir ustalari bo'lib yetishishlarida katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.Jalolov.Chet til o’qitish metodikasi , 2012.
2. Stell Cotrell.The Study Skills Handbook.Palgrave Study Skills
3. Schoonen, R., Gelderen, A. V., Glopper, K. D., Hulstijn, J., Simis, A., Snellings, P., & Stevenson, M. (2003). First language and second language writing: The role of linguistic knowledge, speed of processing, and metacognitive knowledge. *Language Learning*, *53*(1), 165-202. Schraw, G., & Dennison, R. S. (1994). Assessing metacognitive awareness. *Contemporary Educational Psychology*, *19*(4), 460-475. doi:
4. www.thebalance careers.com
5. https ://proforientator.ru

THE ROLE OF LINGUOCULTURAL APPROACH IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

РОЛЬ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ